RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINING FAROVONLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Koriev Orif Azizovich
Toshmineralsuv bottler MChJ Xududiy menedjer
orifkoriev@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining farovonligini oshirish yo‘llari, bandlikni ta’minlash, insonlarning turmush farovonligini yuksalishiga xizmat qiluvchi omillar bilan bog‘liq masalalar ko‘rilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, biznes, kam ta’minlangan, bank, kredit, muhit, investision, tadbirkorlik faoliyati, bandlik, subsidiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы, связанные с повышением благосостояния населения в условиях цифровой экономики, обеспечением занятости, а также факторы, способствующие повышению благосостояния людей.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, предпринимательство, бизнес, малообеспеченные, банковское дело, кредит, экология, инвестиции, предпринимательская активность, занятость, субсидирование.*

Abstract: *This article examines issues related to improving well-being in the digital economy, ensuring employment, and the factors that contribute to improving well-being.*

Keywords: *digital economy, entrepreneurship, business, low-income individuals, banking, credit, ecology, investment, entrepreneurial activity, employment, subsidies.*

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot dunyo iqtisodiyotining asosiy drayveriga aylangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va raqamli yechimlar iqtisodiy jarayonlarni tubdan o‘zgartirib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy sohalarda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining turmush farovonligini oshirish hamda ijtimoiy tenglikni ta’minlash masalalari yangi yondashuvlarni talab qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining turmush darajasini yaxshilashning asosiy yo‘llari va samarali strategiyalari ko‘rib chiqilmoqda. Bunda: Raqamli iqtisodiyot va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ya`ni,

Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalar asosida shakllangan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv tizimidir. U iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot:

- yangi ish o‘rinlarini yaratadi;
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda samaradorlikni oshiradi;
- davlat va biznes o‘rtasidagi muloqotni yaxshilaydi;

- fuqarolarga qulayliklar yaratib, hayot sifatini yaxshilaydi.

Shu bilan birgalikda raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining farovonligini oshirishning asosiy yo‘llari birinchi navbatda raqamli savodxonlikni oshirishdir.

Bizga ma`lumki, aholining raqamli savodxonligi bugungi kunda asosiy omillardan biridir. Axborot texnologiyalarini yaxshi biladigan, internet resurslaridan samarali foydalanadigan odamlar yanada yuqori daromadga ega bo‘lishlari, innovatsiyalarni joriy qilishda faol ishtirok etishlari mumkin.

Shu boisdan: maktab va oliy ta’lim muassasalarida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish; keksalar va yoshlar uchun maxsus raqamli o‘quv kurslari tashkil etish; internet va raqamli xizmatlarga arzon kirishni ta’minlash lozim.

Masofaviy ish va biznesni rivojlantirish esa **r**aqamli iqtisodiyot masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu: aholining turmush sharoitini yaxshilashga imkon yaratadi; qishloq joylarda ham ish bilan bandlikni oshiradi; qIsh bilan band bo‘lmagan qatlamlarni ishga jalb qiladi.

Davlat va xususiy sektor masofaviy ish va onlayn biznesni rag‘batlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqishi zarur bo`lib qolmoqda.

Shuningdek, elektron hukumat tizimi orqali aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning raqamlashtirilishi:

- xizmat sifatini yaxshilaydi;
- vaqt va xarajatlarni kamaytiradi;
- fuqarolarning davlat organlari bilan muloqotini osonlashtiradi.
- bunday tizim aholining davlat xizmatlaridan qulay foydalanishi, shuningdek korrupsiyani kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari raqamli moliya vositalari (mobil banking, elektron hamyonlar, onlayn to‘lovlar) aholi uchun moliyaviy xizmatlarga erkin va oson kirishni ta’minlaydi. Bu:

- kichik tadbirkorlikni rivojlantiradi;
- iqtisodiy faollikni oshiradi;
- ijtimoiy himoyani yaxshilaydi.

Texnologik taraqqiyot sharoitida ta’lim tizimini zamonaviylashtirish, onlayn ta’lim, yangi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash aholining farovonligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Eng asosiysi raqamli iqtisodiyotning aholining turmush farovonligiga ijobiy ta’siri ko`radigan bo`lsak. Ularga: Bandlik va daromadlar o‘sishi**:** Raqamli iqtisodiyot yangi ish joylarini yaratadi, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun imkoniyatlar kengayadi**.** Xizmatlar sifati yaxshilanishi: Elektron xizmatlar orqali sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy himoya sohalaridagi xizmatlar yaxshilanadi**.** Ijtimoiy tenglikni oshirish: Raqamli platformalar yordamida ijtimoiy yordamlar samaraliroq taqsimlanadi. Hayot sifatining yaxshilanishi: Internet va texnologiyalar hayotni qulaylashtiradi, vaqtni tejaydi va turli imkoniyatlar yaratmoqda.

Albatta, raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq muammolar ham mavjud:

➢ **raqamli notenglik:** internet va texnologiyalarga kirish imkoniyati hamma uchun teng emas.

➢ **ma'lumotlar xavfsizligi:** shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

➢ **texnologik qaramlik:** ba'zi sohalarda ish o'rinlari avtomatlashtirish sabab qisqarishi mumkin.

➢ **raqamli savodsizlik:** ba'zi qatlamlar yangi texnologiyalarni o'zlashtira olmaydi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun kompleks strategiyalar ishlab chiqilishi zarur bo`lmoqda qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholining farovonligini oshirish ko'rsatkichlari

Yil	Internetdan foydalanish darajasi (%)	Raqamli savodxonlik darajasi (%)	Masofaviy ish bilan bandlar (%)	O'rtacha oylik ish haqi (ming so'm)	Elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni (ming)
2020	60	45	5	1 500	1 200
2021	68	53	10	1 900	1 800
2022	75	60	15	2 400	2 600
2023	82	68	20	2 900	3 500
2024	88	75	25	3 400	4 200

Manba: www.stat.uz sayt ma`lumotlari asosida tayyorlangan

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib aytadigan bo`lsak, internetdan foydalanish darajasi: so'nggi yillarda internetdan foydalanish darajasi sezilarli darajada oshgan - 2020-yilda 60% bo'lsa, 2024-yilda 88% gacha yetgan, Internetga keng kirish aholining axborot olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi. Raqamli savodxonlik darajasi bo`yicha: raqamli savodxonlik darajasi ham yaxshilanib, 2020-yildagi 45% dan 2024-yilda 75% ga ko'tarilgan, bu odamlarning raqamli qurilmalarni va xizmatlarni samarali qo'llay olish darajasining oshganidan dalolat beradi.

Masofaviy ish bilan bandlik bo`yicha esa masofaviy ish imkoniyatlaridan foydalanish ham oshib borayotgani ko'rinadi: 2020-yilda faqat 5% aholi masofaviy ish bilan band bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 25% gacha yetgan, bu esa, ayniqsa, qishloq joylarda yoki ish topishda qiyinchilik seziladigan hududlarda aholining daromadlarini oshirishga yordam beradi. O'rtacha oylik ish haqi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi o'rtacha ish haqining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda - 2020-yilda 1 500 ming so'mdan 2024-yilda 3 400 ming so'mga qadar o'sish kuzatilgan, bu farovonlik darajasining sezilarli

yaxshilanishini ko'rsatadi. Elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni jadvalda ko`rinib turibdi unda davlat va xususiy sektor tomonidan taqdim etilayotgan elektron xizmatlardan foydalanuvchilar soni ham tez o'smoqda, 2020-yilda 1 200 ming kishi bo'lsa, 2024-yilda 4 200 ming kishiga yetgan, bu xizmatlarga kirish qulayligi va ularning samaradorligidan dalolat bermoqda.

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli iqtisodiyot elementlari - internet foydalanish, raqamli savodxonlik, masofaviy ish, elektron xizmatlar - rivojlanishi aholining turmush farovonligini oshirishda muhim omillar hisoblanadi. Bu jarayonlar:

- aholining daromadlarini oshirishga,
- ish bilan bandlikni ko'paytirishga,
- davlat xizmatlaridan foydalanish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichlarning yaxshilanishi raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotidagi ijobiy ta'sirini ko'rsatadi va kelajakda yanada samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, **r**aqamli iqtisodiyot zamonaviy jamiyatda aholining turmush farovonligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonda raqamli savodxonlikni oshirish, masofaviy ish va biznesni rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini kengaytirish, raqamli moliya xizmatlarini takomillashtirish va innovatsion ta'lim tizimini joriy etish asosiy yo'llar sifatida ko'rilmoqda**.**

Shuning uchun davlat, biznes va jamiyatning hamkorligi natijasida raqamli iqtisodiyot aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini yanada yuqori bosqichga olib chiqishi mumkin deb o`ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev, Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi. 2021 yil 29 dekabr,. № 271-272 (7229-7230)

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2020 yil 7 fevral, PF-4947-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2021 y.

4 . Yuldashev K, Xolmirzayev A Osuщyestvleniye realizasii mexanizma chastnogo partnerstva v Uzbekistane."Molodoy uchyonnыy" № 51(289)str -435.

5. Saidboyev Sh.,Yuldashev K "Bank xatarlari" Namangan nashriyoti 65b.

6. Iqtisodiy ensiklopediya. Toshkent - 2019 y.

7. www.stat.uz sayt ma'lumotlari.